

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14601756>

MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARGA O‘TISH VA ACCA SERTIFIKATLARI

Ermatov Muhammadamin Akmaljon o‘g‘li

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti 3-bosqich talabasi

ermatovmuhammadsodiq@gmail.com

Annotatsiya: So‘ngi yillarda Yangi O‘zbekiston katta rivojlanish bosqichiga o‘tishi va iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni rivojlantrishni yangi bosqichiga o‘tishi zamonaviy kasiblarni kirib kelishi yangi ish o‘rinlarni yaratish jahon bozorida o‘z o‘rini topishi masalari axamiyatga ega ushbu maqolada buxgalteriya hisobini zamonaviy jahon standartlarga o‘tishi va sertifikatlar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Transformatsiya ACCA Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari.

Аннотация: В последние годы новый Узбекистан вступил в важный этап своего развития, новый этап экономического и социального развития. В статье описан переход бухгалтерского учета на современные мировые стандарты и сертификаты.

Ключевые слова: Трансформация ACCA Международные стандарты финансовой отчетности.

Abstract: In recent years, new Uzbekistan has entered an important stage of its development, a new stage of economic and social development. The article describes the transition of accounting to modern world standards and certificates.

Keywords: Transformation ACCA International standards of financial reporting.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda mamlakatimiz jahon bozoriga integratsiyalashuvi yanada rivojlanmoqda. Xususan, buxgalteriya sohasida ham bu borada qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlaridan foydalanish esa ana shu ishlarning eng yaqqol namoyishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlat sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) deganda-davlat tasarrufidagi tashkilotlarda (davlat ishtirokidagi tijorat korxonalaridan tashqari) yuqori sifatda hamda jahon standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish bo‘yicha xalqaro darajada umumqabul qilingan qoidalardir. Bu bo‘yicha bajariladigan ishlar esa albatta, xalqaro maydonga barcha uchun tushunarli, aniq va shaffof tarzda tayyorlangan mahsulotlarni taqdim etishda asosiy vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaror PQ-4611, 2020 qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi hamda bu sohada mutaxasislarni tayyorlash masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bu orqali xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va boshqa masalalar bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan 2020-yil 12- oktabrda 92-sonli MHXS hujjatlarini davlat tiliga tarjima qilish va ulami ekspertizadan o‘tkazishni tashkil qilish to‘g‘risida buyrug‘iga asosan 62 ta MHXS hujjatlari davlat tiliga tarjima qilindi. [2] O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” nomli asarida “Ilg‘or xalqaro tajribaga muvofiq instrumentlardan foydalanish hisobiga pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, milliy valyutaning va ichki bozordagi narxlarning barqarorligini ta’minalash” vazifasining qo‘yilishi ham kompaniyalar boshqaruvin tizimlarida ilg‘or xorijiy tajribalar va instrumentlardan foydalanishni ko‘zda tutadi.

[3] Ma’lumki davlat rahbarimiz buxgalteriya hisobi tizimini yanada

takomillashtish va uni moliyaviy hisobotining xalqaro standartlariga o‘tkazishni rag‘batlantrish chora-tadbirlari to‘risida qaror loyihasi ishlab chiqilgan. Bunda quydagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan bu standartga o‘tish 2026-yil 1-yanvardan o‘tish reja qilindi:

- 1) MHXS tadbiq etadigan tashkilotlarni sifat mezonlariga asoslangan aniq sinflarga bo‘lish.
- 2) Buxgalteriya hisobinig milliy standartlarga (BHMS) xalqaro tamoyillarga muofiqlashtrish
- 3) Amaldagi tartib bilan birgalikda 35 yoshdan oshmagan barcha fuqorolarga dastlabki ro‘yxatdan o‘tish va imtixon xarajatlarini to‘liq qoplab berish
- 4) Moliyaviy hisobotlarni yig‘ish ishonchligini saqlash.

Ushbu masalalarning kun tartibiga qo‘yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunga moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformatsiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda transformatsiya masalalari bo‘yicha adabiyotlar va ilmiy maqolalar ham yetarli emas. Shu bois, moliyaviy hisobot transformatsiyasi masalasi kun tartibida turgan dolzarb mavzu hisoblanadi.

[4] Dastavval, transformatsiya so‘zining lug‘aviy ma’nosiga to‘xtalib o‘taylik. “Transformatsiya (lot. Transformatio - o‘zgartirish, qayta tashkil etish) 1) struktura, shakl va uslublarini qayta tashkil etish, faoliyatning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish; 2) aynaltirishning bitta usullaridan biri, xalqaro huquq normalarini ichki davlat huquqi normalariga qayta tashkil qilish ma’nolarini anglatadi”.

Demak, buxgalteriya hisobi ma’nolarida transformatsiya mamlakatimizda amal qilingan qonunchilikka muvofiq hisob tizimidagi qoidalar, tamoyillar, usul va uslublarni hamda axborotlarni boshqa mamlakat yoki xalqaro qoidalariga muvofiqlashtirgan holda aylantirishga, ya’ni yangi ma’no kashf etishga aytiladi. “Moliyaviy hisobotning transformatsiyasi – bu buxgalteriya hisobining Rossiya tizimi qoidalariga ko‘ra tuzilgan hisobotdagi hisob axborotlarini qayta guruhlashtirish va hisobot moddalariga to‘g‘irlashlar kiritish yo‘li bilan MHXSlariga muvofiq moliyaviy

hisobotlarni tuzish jarayonidir”.

Fikrimizcha, ta’rifda keltirilgan qayta guruhlashtirish, hisobot moddalariga to‘g‘irlashlar kiritish kabi fikrlariga to‘liq qo‘shilamiz. Lekin, transformatsiya bu moliyaviy hisobot tuzish emas, balki ag‘darish jarayoni deyilsa ko‘proq maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

[5] G.Islomovaning fikricha moliyaviy hisobot transformatsiyasiga transformatsiya shunday taomilki, u hisobot sanasi holati bo‘yicha o‘tkaziladi va u milliy hisob standartlari bo‘yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini uning barcha elementlarini e’tirof etish, o‘lchash va ochib berishning tegishli qoidalarini hisobga olgan holda MHXS formatiga o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha tuzatishlarni o‘z ichiga oladi” - deb ta’riflaydi

ACCA bu-moliya va hisob sohasidagi professionallarning global assotsiatsiyasi. Assotsiatsiya biznesda kerakli bo‘lgan ko‘nimlarni inobatga olib, muvaffaqiyatli karyera qurishga yordam bermadi. ACCA dunyoning 101 davlatida ofislarga va 7292 nafar akkreditatsiyadan o‘tgan ish beruvchiga ega. ACCAni biznes boshqaruvin o‘rgatadigan assotsiatsiya deb ham tushunsa bo‘ladi. Bu assotsiatsiyaning 13 ta fanni o‘qitadigan dasturi bo‘lib, uning ichida buxgalteriya asosiy soha hisoblanadi. Shuningdek, dastur ichida moliya boshqaruvi, soliq, tijorat huquqi, IT, biznes boshqaruvi kabi yo‘nalishlar ham bor. Ko‘pchilikda bu yo‘nalishda o‘qigandan keyin kim bo‘lish mumkinligi haqida savol tug‘iladi. ACCA sertifikatini olgan talaba yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlarda bemalol ishlay oladi. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari O‘zbekistonda ham juda dolzarb mavzuga aylandi. Chunki O‘zbekiston korxonalari 2021 yilning 1 yanvaridan boshlab moliyaviy hisobot bo‘yicha xalqaro standartlarga o‘tyapti. Ya’ni aynan ACCAda moliyaviy hisobot xalqaro standartlari yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, MHXS bizga juda ko‘p qulaylik va daromad beradi chunki mamlakatimizga investitsiya oqimi ikki balki uch barobarga oshadi jahonning ko‘plab korxona kompaniyalari ushbu hisobot turida ish yuritib kelishadi. To‘g‘ri bizning mamlakatimizda bosqichma bosqich o‘tilyapti lekin bizda mavjud moddiy

baza va resuslar bor lekin og‘riqli nuqtamiz kadirlar muamosi shu muamoni bartarf etish masalasi to‘sinq bo‘lib turipdi biz bu muamoni xal qilish uchun oliv ta’lim muassasida boshlashimiz kerak. Talabalarni xalqaro sertifikatlarga tayyorlash guruhlarini tashkil etish va xalqaro sertifikat beruvchi kompaniyalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va filyallarini OTMlar qoshida ochish kerak.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli Qarori. 24.02.2020-yil – <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. Sh.M. Mirziyoev “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”
3. https://t.me/auditor_team telegram kanali
4. A.Mamatkulov MHXS o‘tish bosqichlari va usullari Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslibiy jurnali, 59-61
5. G.Islomova “MHXS bilan ishlashga tayyormisiz” nomli maqolasida